

ADABIYOT DARSLARIDA NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Umurova Farangiz Askarboy qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute tayanch doktoranti
umurovafarangiz@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kundagi talabalar nutqidagi muammolarning sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari, adabiyot darslaridagi mavzularning nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishdagi roli misollar bilan ko'rsatilganligi, nutqning ravon va ta'sirchanligi o'qituvchi faoliyatining muhim unsurlaridan biri ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Nutqiy qobiliyat, tizimli, nafas, badiiy asar, talaffuz, o'quv-topshiriq, mantiqiy fikrlash, so'z boyligi.

EDEBIYAT DERSLERINDE KONUSMA BECERILERININ GELISTIRILMESINDEKI SORUNLAR

Umurova Farangiz Askarboy qizi,
O'zbek-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü temel doktora öğrencisi

Özet. Bu makalede günümüzde öğrencilerin konuşmalarında yaşanan sorunların nedenleri ve bunların üstesinden gelme yolları ele alınmakta, edebiyat derslerinde işlenen konuların konuşma becerilerinin oluşumundaki rolü örneklerle gösterilmekte, akıcı ve etkili konuşmanın öğretmenin işinin önemli unsurlarından biri olduğu vurgulanmaktadır.

Anahtar kelimeler. Konuşma becerisi, sistematik, nefes alma, sanatsal çalışma, telaffuz, eğitim görevi, mantıksal düşünme, kelime bilgisi.

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Умурова Фарангиз Аскарбой кизи,
докторант Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются причины возникновения проблем в речи учащихся сегодня и пути их преодоления, на примерах иллюстрируется роль тем на уроках литературы в формировании речевых навыков, а также то, что беглая и эффективная речь является одним из важных элементов работы учителя.

Ключевые слова. Речевая способность, системность, дыхание, художественное творчество, произношение, учебная задача, логическое мышление, словарный запас.

PROBLEMS OF DEVELOPING SPEECH SKILLS IN LITERATURE LESSONS

Umurova Farangiz Askarboy qizi,
doctoral student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. The article examines the causes of problems in students' speech today and ways to overcome them, examples illustrate the role of topics in literature lessons in the formation of speech skills, as well as the fact that fluent and effective speech is one of the important elements of a teacher's work.

Keywords. Speech ability, systematicity, breathing, artistic creativity, pronunciation, educational task, logical thinking, vocabulary.

Barchamizga ma'lumki, inson nutqi orqali ommaga ta'sir etadi va aynan nutq orqali ularni orqasidan ergashtira oladi. Bugungi kunda ko'plab yoshlar orasida nutqini tizimli qilib yetkazib bera olmasligini, kuchli hayajon sababli omma oldida nutq qilishdan tortinishi va ovozdagi titroq, nafas yetishmovchiligi kabi muammolarni ko'rishimiz mumkin. Bilimi yetarli bo'lsa ham xato qilishdan qo'rqishadi, fikrlarini tizimlashtirmaydi. Bunga asosiy sabab yoshligida kattalar tomonidan ko'p narsalarga aynan gapirishga bo'lgan cheklovlarning me'yoridan oshib ketganligi va omma oldida ko'p gapirmaganligi (tajribaning yo'qligi)dir.

Yuqoridagi sabablardan kelib chiqib, maktab o'quvchilarining nutqini yaxshilash uchun Oliy ta'lim talabalarining nutqiga birinchi navbatda e'tibor qaratishni lozim topdik, chunki maktabga aynan mana shu talabalar ta'lim berishadi. O'qituvchi o'zi nutqqa oid nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lsagina o'quvchi nutqiga e'tibor beradi, uni rivojlantirishga harakat qiladi. Bilamizki, pedagogning asosiy qurollaridan biri bu – uning nutqidir. Nutq orqali u o'quvchilarga ta'sir o'tkaza oladi, nutq orqali ularni mavzuga, fanga qiziqтира oladi. Inson nutqi qachon rivojlanadi? Qachonki, u badiiy asar o'qisa. Ilmiy asar emas, publitsistik maqola emas aynan badiiy asar o'qiganda, chuni badiiy asarda sinonimlar bor, so'z qochrimlari bor, tasviriylik, ifodalilik kuchli. Bunday asarlar o'quvchilarda so'z boyligini oshirishda, ularning tasavvur olamini jozibador qilib, dunyoqarashini kengaytirishda yordam beradi. Shu sababli adabiyot darslarini ona tili darslari bilan integratsiya qilish orqali talabalar nutqiga e'tibor qaratish dolzarb muammolardan biridir. Mana shunday muammolarni bugungi kundagi tadqiqotlarda ham ko'rishimiz mumkin: G'.Dustmurodov o'z tadqiqot ishida "Nutq tovushlari bilan bog'liq tipik kamchiliklarni tuzatish orqali talabalar talaffuz madaniyatini oshirish, orfoepiya o'qitish metodikasini shakllantirish lozim. Biroq, orfoepiyani maktab va universitetda o'qitish amaliyotida orfoepik ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirish uzoq va murakkab jarayon ekanligi yetarlicha hisobga olinmaydi" [1, 14 b]. Bizning fikrimizcha ham, aynan orfoepik qoidalar maktab ta'limidan o'quvchilarga nazariy va amaliy topshiriqlar orqali o'rgatilishi va dastur va rejalarga orfoepiyaga va nutqni rivojlantirishga bag'ishlangan maxsus soatlar kiritilishi lozim, shundagina adabiy talaffuz me'yorlari maktab yoshidan yaxshi rivojlanadi, ko'nikma hosil bo'ladi.

Oldingi nashrlardagi ona tili va adabiyot darsliklarida mantiqiy fikrlash, nutqiy qobiliyatlarni o'stirish kabi jihatlardan ko'ra ko'proq grammatika, qoidaga asoslangan edi. Oliy ta'limga kirish imtihonlaridagi testlar ham shu qoidaga asoslanib tuzilganligi bois, o'quvchilarda erkin ijodiy fikrlash, og'zaki nutqiy qobiliyatlar orqada qolganligini ko'p kuzatdik. Lekin bugungi kundagi yangi nashrdagi darsliklarda mantiqiy fikrlashga undaydigan, turli sohalaridagi bilimlar jamlangan qisqa matn hikoyalar, qiziqarli topshiriqlar o'rin olgan darsliklar o'quvchilarning darsga qiziqishlariga, tanqidiy tafakkurlarini rivojlantirishlarida muhim dasturil amal bo'la oladi. Shu bilan birga kirish imtihonlari va Milliy sertifikat imtihonidagi testlar mazmuni ham ancha o'zgargan, mantiqiy fikrlashga undaydigan saviyada tuzilgan. Tanqidiy fikrlashi yaxshi bo'lgan insonlarning nutqi ham qolganlarga nisbatan ravon bo'ladi.

Bizning tadqiqot obyektimiz talabalar bo'lganligi sababli, bugungi kundagi talabalar oldingi nashrdagi maktab darsliklarini o'zlashtirishganligi bois, ular qoida va test ishlashga moslashib qolishgan, shu sababdan nutqlarida muammosi borlari ko'p kuzatiladi. Bunday muammolarga qanday yechim topiladi? Nutqiy ko'nikmalarini qanday rivojlantirish mumkin? Bu kabi savolarga javob, bizningcha, avvalambor, badiiy asar o'qish orqali so'z boyligini oshirish eng muhim qadamlardandir. Masalan, L.Muhammadjonova ham o'zining "Ritorika" asarida ushbu masalaga to'xtalib: "Nutqning til madaniyati lug'at madaniyatini egallashni talab qiladi. Bunda notiqning individual lug'ati faol ravishda kengayib borishi, nutq so'zlarining to'g'ri va ko'chma ma'nolari ahamiyatining ortib borishi ko'zda tutiladi [2, 85 b]". bizningcha ham so'z boyligi ko'p bo'lgan inson nutqda ham qiynalmay, nutq vaziyatiga mos ravishda til birliklaridan o'rinli foydalana oladi. Bunday vaziyatlarda bizga adabiyot darslaridagi mavzulardan: she'riy, nasriy, mumtoz asarlardan foydalanish ancha qo'l keladi.

Masalan:

1. She'riy asarlarni o'qitayotganda o'quvchi uni shunchaki ifodali o'qib berishi emas, balki unga o'qituvchi tomonidan qaysi so'zga urg'u qo'yilishi (bilamizki, urg'uning noto'g'ri qo'yilishi ham gap ma'nosiga ta'sir qiladi), to'xtam(pauza) ham nutq ta'sirchangligini oshiruvchi vosita, shu sababli kerakli joylarda ularni ishlata bilish kerakligi o'rgatilishi va o'quvchilar talaffuzida qaysi harflar to'g'ri talaffuz qilinyapti qaysilari noto'g'ri, tovushlarning ichga yutib yuborish hodisasi kuzatilyaptimi kabi muammolar o'rganilib, har bitta o'quvchiga individual yondashilsa (imkon boricha, albatta) o'quvchilarda nutqiy bilimlar va ularni amaliyotga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil bo'lib boraveradi.

2. Nasriy asarlarni o'qish nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki o'quvchilarni ijodiy-tanqidiy fikrlashga, tasavvur olamini kengaytirishga ham xizmat qilishini yaxshi bilamiz. Nasriy asarlardan keyin aynan, nutqni o'stirishga qaratilgan qiziqarli o'quv-topshiriqlari ishlab chiqish orqali o'quvchilarni ham asarlarga qiziqishini oshirish ham nutqiy ko'nikmalarini o'stirishga yordam berish mumkin. Doim biz- o'qituvchilar qanday mavzu o'tishimizdan qat'iy nazar o'quvchilarni shu mavzuga qiziqтира olsakkina darsdan ko'zlangan maqsadga erishamiz va bu maqsadga esa o'qituvchining ta'sirchan nutqi va to'g'ri tanlangan metodi olib boradi.

3. O'quvchilar talaffuzini tiniqlashtirishga xizmat qiladigan usullardan biri – tillari moslashmagan tillarda she'r yod olish yoki ovoz chiqarib matn o'qish. Mana shu usulni qo'llashda aynan adabiyot darslarida bizga mumtoz asarlarimiz yordamga keladi. Bugungi texnologiyalar rivojlangan davrda zamon bilan hamnafas bo'lib, ushbu mumtoz matnlarning audio yoki video matnini tayyorlash vazifasi ularda ham qiziqishni oshiradi ham talaffuzini tiniqlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi rivojlangan davrda nafaqat o'qituvchilar, balki har bir kasb egasi uchun nutqiy qobiliyat zarur. O'z fikrini xoh ommaga xoh bir insonga ta'sirchan, qiziqarli, tizimli qilib yetkazmasa undan hamma tez zerikadi. O'qituvchining esa darsdagi asosiy qurollaridan biri bu uning – nutqidir. Zamonaviy o'qituvchi bo'lish uchun ham o'z nutqi ustida ishlashi kerak. Ta'sirchan nutqi orqali o'quvchilarni fanga qiziqтира oladi, ilmiy-nazariy bilimlarni yetkaza oladi va asosiysi ularni o'z ortidan ergashtira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K.. Adabiyot 7-sinf darslik. Toshkent – 2022.
2. Dustmurodov G', Bo'lajak ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining adabiy talaffuz ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi. Ped.fan.nom-di...diss. Toshkent – 2024, 137 bet.
3. Muhammadjonova L, Ritorika. – Toshkent, 2019.170 bet.
4. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX* , 514-516.
5. Utirovna, E. S. (2023). Badiiy matnni shakllantirishda funksional ko'makchilarning o'rni. *Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси* <http://mamun.uz/uz/page/56>, 4, 43-45.
6. Kamol o'g'li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).